

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14869406>

O'QUVCHI-YOSHLARGA ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOTGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

Xolmo'minova Oygul Jumayevna

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Email: oygul2728@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada o'quvchi-yoshlarga atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyotga oid tushunchalarni shakllantirishning ayrim masalalari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhitni asrash, yashil iqtisodiyot, ekologik huquqiy ong, ekologik huquqiy tarbiya, biologik xilma-xillik, flora va fauna, ekologik ta'lif, ekologik tarbiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarga **atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot** ga oid tushunchalarni shakllantirish zamon talabi va xalqaro andozalar asosida olib borilayotganligini hammamizga ayon.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisda 20 noyabr 2024 yilda bo'lib o'tgan majlisda **2025 yilni** O'zbekistonda "**Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili**"¹ deb e'lon qilganligi ham betakror ahamiyatga ega bo'lib, mazkur tashabbus, bevosita "**globallashuv jarayonini**" va "**yashil" iqtisodiyot** talablarini o'zida ifoda etadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining (Yangi tahrir) dagi Konstitutsiyasiva boshqa qonunosti normativ huquqiy hujjatlari qabul qilinmoqda.

¹ <https://sputniknews.uz/20241120/atrof-muhit-yashil-iqtisodiyot-mirziyoyev-2025-yil-nom-46708639.html>

Vaholangki, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida “...barcha turdagি ta’lim muassasalarida ekologiya o‘quvining majburiyligi” qayd etilgan bo‘lib, ekologik ta’limning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlarida, jumladan, umumta’lim maktablari va texnikum o‘quvchilari hamda oliy ta’lim talabalarida atrof-muhitni asrash muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

O‘quvchi-yoshlarimiz bu sohada, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy prinsiplarini (tamoyillarini) belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish va buning asosida ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichiga olib chiqish konsepsiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanishini tasavvur qilishlari lozim.

Shunday ekan, yoshlarimizga O‘zbekistonda aholi hayoti sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jumlasida mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni alohida tushuntirib o‘tish kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi”, 2021 yil 30 dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari”to‘g‘risidagi farmonida tatbiq etilishi belgilangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi dasturlarida atrof muhit obyektlarini (havo, suv, yer, tuproq, yer qa’ri, bioxilma-xillik, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar) inson ta’siri hamda boshqa salbiy ta’sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta’minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko‘lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejali ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

O‘quvchi-yoshlarimizga yurtimizda xalqaro darajada aholi hayot sifatini yaxshilash borasida qabul qilingan eng muhim hujjat-Birlashgan millatlar

tashkilotining (BMT) 2015 yilda qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” bo‘lib, ular butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o‘zaro bog‘liq maqsaddan iborat bo‘lgan hujjatni mohiyatini kengroq tushuntirish lozim. Shuningdek, yoshlarimiz O‘zbekistonda 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlanib, unda 16 ta milliy barqaror rivojlanish maqsadi, 125 ta vazifa belgilanib olinganligini ham bilib olishlari o‘ta muhimdir. E’tiborli tomoni shundaki, milliy maqsadlardan iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo‘yicha tezkor choralarini qabul qilish, quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarni eroziyasini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish kabi vazifalarni o‘z faoliyatlarida bilib olishlari zarur.

Shuningdek, yoshlarimiz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 may, 434-sod Qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi” nitasdiqlanganligini ham bilishlari va faoliyatlarida o‘zlashtirib olishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi-yoshlarimiz respublikada ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam ekanligini bilishlari, ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish orqali hududlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilinganligini ahamiyatli tomonlarini bilishlari zarur. Shu ma’noda o‘quvchi-yoshlarimiz barcha shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo‘yicha keng ko‘lamda ish olib borilayotgani tahsinga sazovorligini tushunib, har yili kuz va bahor oylarida ekiladigan daraxtlar parvarishiga, ularning keyingi taqdiriga ham o‘zlar e’tiborli bo‘lishliklarini his etishlari lozim.

Shu o‘rinda o‘quvchi-yoshlarimiz so‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqlimning o‘zgarishi, yillik o‘rtacha temperaturaning ko‘tarilishi, mavsumiy qurg‘oqchilik

kuchayishi tendensiyasi kuzatilayotganligini, bu esa Orol dengizining qurish jarayoni mintaqadagi iqlim sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini ko'z oldilariga keltirishlari o'rinnlidir. Bu salbiy ta'sirning oqibatlarini yumshatish uchun davlatimiz tomonidan qator tadbirlar ishlab chiqilib, ular qatoriga Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming hektar yashil maydonlarni barpo etish, 2026 yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million hektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish, Orolbo'yida xalqaro "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilmallik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligini o'zlariga his etishlari o'ta ma'suliyat hisoblanadi.

Ta'kidlash o'rinniki, bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoxda. Bunday vaziyatda o'quvchi-yoshlarga tabiatni muhofaza qilish masalasini tushuntirishda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonini, ya'ni o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo'nalishni bir-biridan ajratib tahlil qilishligini ko'rsatib o'tish lozim.

Birinchisi, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida, o'quvchi-yoshlarning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish.

Ikkinchisi, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta'lim- tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida o'quvchi-yoshlarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashini rivojlantirishdir. Bu yo'nalishlarni umuminsoniy ma'nfaatlar negizida uyg'un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o'ynashini alohida ta'kidlash o'rini.

Ko'rinish turibdiki, sayyoramiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. O'quvchi-yoshlar o'rtasida ekologik bilim, ong, madaniyat hamda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ekologiya sohasini ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashishini, yoshlarning Ona tabiatni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va

ko‘nikmalarini oshirishni davrning o‘zi talab etmoqda. Mazkur xayrli ishlarni amalgalashda keng jamoatchilikning roli beqiyosligini o‘quvchi-yoshlarimiz unutmasligi lozim.

Umuman olganda, tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta’lim-tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyatda qo‘llash, ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy sharti bo‘lib, buning uchun ta’lim-tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg‘un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Shuningdek, o‘quvchi-yoshlar, Yurtboshimiz tomonidan 2019 yil 4 oktabrda iqlim o‘zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga yo‘naltirilgan 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “**yashil**” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasitasdiqlanib, uning asosiy vazifalari quyidagilar ekanligini bilishlari ijobiy natija beradi.

iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; davlat investitsiyalarining ustuvor yo‘nalishlari va xarajatlariga “yashil” mezonlarni kiritish; “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini tadbiq etish loyhalarini davlat tomonidan rag‘batlantirishni ta’minalash; “yashil” iqtisodiyot uchun kadrlarni tayyorlash; “yashil” iqtisodiyot sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va boshqalardir.

Shu ma’noda, o‘quvchi-yoshlarimiz, “**Yashil iqtisodiyot**” uchta nazariyaga tayanishini, ya’ni: **birinchidan**, cheklangan makonga ta’sirni cheksiz ravishda kengaytirib bo‘lmasligini; **ikkinchidan**, tobora ortib borayotgan iste’mol talabini cheklangan resurslar sharoitida qondirib bo‘lmasligini; **uchinchidan**, yer yuzidagi barcha tabiiy hodisalar bir-biri bilan bog‘liqligini va uni uchun atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot talablarini bilib olishlari lozim. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmash masalalaridan biri hisoblanadi.

Xullas, ota-bobolarimizning atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslarga bo‘lgan oqilona munosabati, biz ulardan ibrat olishimiz kerakligi ham har doim asosiy yashash

tamoyilimiz bo‘lishi lozim. Vaholangki, tabiatni saqlash-inson hayotidagi tahdidlarni oldini olib, kelajak hayotimiz rivojining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi va tabiat boyliklarini saqlanishini ta’minlashga katta yordam beradi. Shunday ekan, atrof-muhitni muhofaza qilish barchamizning insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xolmuminova, O. J. (2024). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK-HUQUQIY TA’LIM-TARBIYA BERISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINI AXAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 418-423.
2. Jumayevna, X. O. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK-HUQUQIY TARBIYA BERISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIK TADBIRLARINING USULLARI. *Ustozlar uchun*, 24(3), 126-130.
3. Jumaevna, K. O. (2023). PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING ENVIRONMENTAL LEGAL EDUCATION IN TEACHERS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(12), 98-105.
4. Xolmuminova, O. J. (2020). PERCULIARITIES OR FAMILY, SCHOOL AND COMMUNITY COOPERATION IN ENVIRONMENTAL LEGAL EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (5), 561-565.
5. Холмуминова, О. (2023). МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРДА ЭКОЛОГИК ОНГНИ ТАРБИЯЛАШГА ОИД ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(15), 30-33.